



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 4/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 4/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбархон Муртазаева ЭЛЕМЕНТЫ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА: НОРМЫ, ИНСТИТУТЫ И ПРАКТИКИ.....	5
2. Боходир Эшов, Гайбулла Уралов ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ.....	14
3. Nilufar Djurayeva XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	21
4. Бекзод Пайзуллаев ОСНОВНЫЕ ТОРГОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ.....	44
5. Farhod Usmanov O‘ZBEKISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI.....	53
6. Baxtiyor Xudoyberdiyev MALLAXON DAVRIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	60
7. Azamat Abduraxmonov SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi yarmidan - hozirgi kungacha).....	65
8. Фаррух Акчаев ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ МАРОСИМЛАРДА АКС ЭТИШИ.....	72
9. Shuxrat Bozorov ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil).....	81
10. Татьяна Дорошенко ФОРМИРОВАНИЕ АРМИИ В.АНДЕРСА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	87
11. Наим Обломуратов СОҲИБҚИРОН МЕРОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР.....	96
12. Nargiza Choriyeva SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	104



Nilufar Dalibayevna Djuraeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasini mudiri,
tarix fanlari nomzodi, professor

XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

For citation: Nilufar D. Djuraeva. HISTORY OF FORMATION AND SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF WOMEN'S ORGANIZATIONS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846325>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xotin-qizlar tashkilotlarining shakllanish tarixi va unga sabab bo‘lgan omillar, xotin-qizlar harakati tarixi, O‘zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlarining tuzilishi va ularning maqsad-vazifalari tahlil etilgan. Xotin-qizlar tashkilotlarining shakllanishi ayollar huquqlari va gender tengligi uchun kurash tarixidagi muhim bosqich bo‘lganligi ilmiy asoslangan. Bu tashkilotlar jamiyat hayotida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga erishishda muhim rol o‘ynayotgani va butun dunyo bo‘ylab ayollarning ahvolini yaxshilash bo‘yicha faol ish olib borayotgani tarixiy misollar asosiga yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, tashkilot, ayollat huquqi, gender tenglik, jamiyat, xotin-qizlar ahvoli.

Джураева Нилуфар Далибаевна,
Узбекский государственный университет мировых языков
Заведующая кафедрой истории Узбекистана,
Кандидат исторических наук, профессор

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЖЕНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирована история формирования женских организаций, факторы, которые привели к их возникновению, история женского движения, структура женских организаций в Узбекистане, а также их цели и задачи. Научно обосновано, что формирование женских организаций является важным этапом в истории борьбы за права женщин и гендерное равенство. На основе исторических примеров показано, что эти организации играют значительную роль в достижении многих позитивных изменений в жизни общества и активно работают по улучшению положения женщин во всем мире.

Ключевые слова: женщины, организации, права женщин, гендерное равенство, общество, положение женщин.

Nilufar D. Djuraeva,
Uzbek State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor

HISTORY OF FORMATION AND SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF WOMEN'S ORGANIZATIONS

ABSTRACT

This article analyzes the history of the formation of women's organizations, the factors that led to their emergence, the history of the women's movement, the structure of women's organizations in Uzbekistan, and their goals and objectives. It is scientifically substantiated that the formation of women's organizations is an important stage in the history of the struggle for women's rights and gender equality. Based on historical examples, it is shown that these organizations play a significant role in achieving many positive changes in society and are actively working to improve the situation of women around the world.

Index Terms: women, organizations, women's rights, gender equality, society, women's status.

Mavzuning dolzarbligi:

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida gender tengligi, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ularning huquqlarini himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Aynan shu nuqtai nazardan mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, mamlakatning mustaqillik davridagi ijtimoiy-siyosiy islohotlari bilan, ikkinchi tomondan esa, xalqaro majburiyatlar va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Mavzuning dolzarb ahamiyat kasb etishini eng avvalo, tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishning ilmiy zaruriyati bilan izohlash mumkin. O'zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlarining shakllanishi XX asrning 20-yillari boshlarida sovet davrida "Zhenotdel" (xotin-qizlar bo'limlari) tizimi orqali boshlangan bo'lsa, mustaqillik yillarida (1991–yilda) O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi jamoat tashkiloti sifatida tashkil topgan. 1995-yilda uning rahbari Bosh vazir o'rinbosari darajasiga ko'tarilishi, 2004-yildagi Prezident Farmoni bilan byudjetdan moliyalashtirilishi va 2022-yilda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga aylantirilishi kabi bosqichlar mamlakat tarixida ayollar harakatining institutsional rivojlanishini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganmasdan turib, hozirgi gender siyosatining samaradorligini baholash qiyin. Chunki tarixiy tajribani bilmasdan, zamonaviy islohotlarni to'g'ri yo'naltirish mumkin emas. Tadqiqotning ilmiy asoslari gender tarixshunosligi, feministik nazariya va postkolonial tadqiqotlarning zamonaviy yondashuvlarini O'zbekiston kontekstida qo'llash imkonini beradi.

Ikkinchidan esa, mavzu amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga egadir. 2021-yilda qabul qilingan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" mamlakatda gender tengligini ta'minlashning asosiy hujjati bo'lib [1], unda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish, turli tazyiq va zo'rvonlikka qarshi kurash, oila institutini mustahkamlash asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan. Xotin-qizlar tashkilotlari tarixini tadqiq etish ana shu strategiyani amalga oshirishda muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 1995-yildan e'tiboran, xotin-qizlar qo'mitasining hududiy bo'linmalari hokim o'rinbosarlari sifatida faoliyat yuritgani bugungi kunda mahallalarda va davlat boshqaruvida ayollarning rolini kuchaytirish tajribasini o'rganishga yordam beradi. Natijada, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida xotin-qizlar ulushi 32 foizga, Senatda esa 25 foizga yetgani kabi yutuqlarning ilmiy asoslanishi yanada chuqurlashadi.

Mavzu dolzarbligining uchinchi jihatini uning xalqaro va mintaqaviy kontekstida ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish to'g'risida"gi Konvensiyasini (CEDAW) birinchilardan bo'lib ratifikatsiya qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 5 – gender

tengligi) doirasida mamlakatimizning majburiyatlari mavjud. Xotin-qizlar tashkilotlari tarixini o'rganish orqali O'zbekistonning sovet davridagi va mustaqillik yillaridagi tajribasini xalqaro gender tadqiqotlari bilan solishtirish-qiyoslash imkoni tug'iladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda (Gender Gap Index, Women, Business and the Law indeksi) o'rnini yaxshilashga ilmiy hissa qo'shadi. Masalan, so'nggi yillarda O'zbekiston gender tengligi va boshqaruv indeksi (GEGI)da 51 pog'onaga ko'tarilgani aynan shunday ilmiy-tadqiqot asosidagi islohotlar natijasidir.

To'rtinchidan, mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish oliy ta'lim muassasalarida gender tadqiqotlari, xotin-qizlar harakati tarixi va feminist nazariya yo'nalishlari rivojiga, yangi darsliklar, monografiyalar va ilmiy ishlar yaratishga, shuningdek, yosh olimlar va mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratadi. Bu esa kelajakda gender siyosatini amalga oshiruvchi kadrlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida shakllangan xotin-qizlar tashkilotlari tajribasi Yangi O'zbekistonning demokratik jamiyat qurish jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qiladi hamda gender tengligi siyosatini yanada samarali va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun mazkur mavzuni chuqur o'rganish bugungi kun talabi va ertangi kun kafolati hisoblanadi, mamlakat barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

2. Metodlar va mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Maqolaning nazariy-uslubiy asosini nazariya va amaliyotning birligini ta'minlaydigan, tarix va zamonaviylikni bog'laydigan xolislik, aniqlik va taraqqiyotning sintezini amalga oshirishga imkon beradigan hamda uslubiy yondoshuvga asoslangan holda muammoli-xronologik, qiyosiy-tahliliy metodlar, ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishidagi o'zaro aloqadorlik, tizimlilik, rivojlanish kabi ilmiy tamoyillar tashkil etadi.

Tadqiqot ishini yozishda keng qo'llanilgan tarixiylik, ob'yektivlik, tizimlilik kabi asosiy uslubiy tamoyillar ma'muriy-buyruqbozlik tizimi davrida ham qayd etilar, ijtimoiy-siyosiy fanlarda ular asosiy uslubiy tamoyillar sifatida ko'rsatilar edi. Lekin, ulardan ko'zlangan maqsad boshqa bo'lib, mazkur tamoyillar "qizil imperiya" davridagi kommunistik mafkuraning siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan edi. Mustabid tuzum davrida tarixiy manbalarni xolis o'rganish emas, balki oldindan belgilab qo'yilgan marksizm-leninizm metodologiyasi va partiya qarorlari nuqtai nazaridan yoritish shart qilib qo'yilgan edi. "Fanning partiyaviyligi"- degan shiorga rioya qilish har bir olimning "muqaddas burchi" hisoblanardi[2]. Shuning uchun ham bunday tamoyillar tanlangan muammolarni ilmiy jihatdan to'la, xolis asnoda bajarishdan yiroq edi. Sovet ittifoqi parchalanganidan so'ng, jamiyat ijtimoiy hayotida bir qancha muammolar vujudga keldi. Xususan, xotin-qizlar masalasi hamda ularning jamiyatda tutgan o'rnini bir qancha munozaralarga sabab bo'ldi. Mavjud muammolar quyidagi sohalarida yaqqol namoyon bo'ldi:

- siyosiy huquqlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari;
- alohida shaxs sifatida va oila a'zosi sifatidagi ayollarning yuridik huquqlari;
- xotin-qizlarning ta'lim olish va o'qitishning turli shakllaridan, jumladan kasb-hunar ta'limidan foydalanishlari;
- mehnat faoliyatlari shular jumlasidandir.

Mintaqa xalqlari xususan, O'zbekiston hukumatiga ham tegishli ushbu masalalar davlat siyosatining keyingi yo'nalishini belgilashda asosiy omil bo'ldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng respublikada qisqa davr ichida juda ko'p sifat o'zgarishlari sodir bo'ldiki, bular iqtisodda, ijtimoiy jarayonlarda va ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi mavqeining yuksalib borishida o'z ifodasini topdi. Qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi, ularning jamiyat siyosiy va madaniy qatlamidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko'riladigan chora-tadbirlar mustaqillikning ilk yillaridanoq o'z samarasini ko'rsatdi.

Mustaqillik sharoitida vaziyat tubdan o'zgarib, yuqorida qayd qilingan ilmiy tamoyillar kommunistik mafkuraning siyosiy maqsadlaridan holi bo'lganligi uchun ham, u ijtimoiy fanlarga xizmat qila boshladi. Shuningdek, tadqiqot ishlarining nazariy-uslubiy asosi bilishning dialektik usuli, milliy g'oya va ilmiy tafakkurning umumbashariy tamoyillari bilan ham belgilanadi.

Ma'lumki, tarixshunoslik tamoyillari – tarixiy tadqiqotlar va bilish jarayonida qo'llaniladigan asosiy printsip va usullar bo'lib, ular yordamida tarixiy haqiqat obektiv va tizimli tarzda o'rganiladi. Asosiy tamoyillar – tarixiy voqea-hodisalar va manbalarni vaqt tartibida joylashtirish va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga qaratilgan xronologik tamoyil, turli davr va jamiyatlardagi tarixiy jarayonlar, fikrlar va tadqiqot natijalarini taqqoslash orqali ularning rivojlanishi va o'zgarishlarini aniqlashdan iborat qiyosiy tamoyil, tarixiy faktlar, dalillar va voqealar sabablarini, rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilish; ularning tarixiy kontekstini va o'zaro munosabatlarini o'rganish maqsadida analitik tamoyil, o'tgan davrlarda yaratilgan tarixiy manbalar va tadqiqotlarni zamonaviy nazariy bilimlar bilan qayta ko'rib chiqish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashni o'rganadigan retrospektiv tamoyil, tarixni ma'lum davrlar yoki bosqichlarga bo'lib, o'sha davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va tarixshunoslik uslublarining o'zgarishini o'rganishga xizmat qiladigan davriy tamoyil shular jumlasidandir.

Bundan tashqari tarixshunoslik tamoyillari tarixni ilmiy yondashuv orqali o'rganishga, tarixiy manbalarni mazmun, kelib chiqish va shakl-jihatidan turkumlashga ham asoslanadi. Tarixiy tadqiqotda asosiy talab – tarixiy dalillarni xolisona, tizimli va mantiqan izchil tahlil qilish, voqea-hodisalar qonuniyatlarini aniqlashdir. Shunday qilib, tarixshunoslik tamoyillari tarixiy voqealarni obyektiv, ilmiy asoslangan metodlar bilan tadqiq etish, tarixiy haqiqiylikni anglash va tarix fani rivojini izchil tushunish imkonini beradi

Tanlangan ishni bajarishga Birinchi Prezident I.Karimov va Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarini metodologik asos qilib olinishi muhim ahamiyatga ega. Asarlarda ko'tarilgan muhim nazariy-metodologik g'oyalar, ayniqsa ulardagi jamiyat hayotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ayollarning ijtimoiy-ma'naviy va madaniy hayotda tutgan o'rni va roli masalalariga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari, ilmiy xulosalari muhim nazariy ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Davlat rahbari Sh.Mirziyoyevning siyosiy qarashlarida millat genofondi, eng avvalo, ayollarning ma'naviy yetukligi va barkamolligi, jismonan sog'lomligi va uning bunyodkorlik hamda yaratuvchanlik imkoniyatlariga bog'liqligi, buni qadrlash va e'zozlash zarurligi, shuningdek, ayollarni jamiyatning teng va faol ishtirokchisiga aylantirish lozimligi yetakchilik qiladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[3], respublikada xotin-qizlarning jamiyatning ma'naviy sohalaridagi rolini kuchaytirish asoslab berilgan respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida ishlab chiqilgan dasturlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42, 58, 78-moddalari hamda maxsus qonunlarda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish va ijtimoiy muhofazasini ta'minlashning huquqiy kafolatlari yaratilgan[4].

O'zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlarining sovet davridagi faoliyati, maqsad va vazifalari taniqli olimlar D.Alimova, Ya.Abdullayeva, Q. Nishonboyeva, N.Jo'rayeva tomonidan mustaqillik mafkurasi asosida ilmiy mushohada etiigan. Mustaqillik yillarida xotin-qizlar masalasiga yangicha yondoshuv haqida G. G'aniyeva, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari bilan T. Norboyeva, M. Jumaniyozova, X. Nasrullayeva; G. Boyqo'zieva kabilar ilmiy – tadqiqot ishlari olib borishgan. M. Karimova ayollar jamoat tashkilotlari, xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati, siyosiy-ijtimoiy ishtirok etish shart-sharoitlarini nazariy-tahliliy asosda batafsil qamrab olgan.

MDH davlatlari olimlaridan feminism va gender tenglik, ayollarning mehnat bozoridagi o'rni va jamiyatdagi ijtimoiy rollari masalalari bo'yicha A.Zdravomislova, O.Voronina; ayollar ijtimoiy tarixi, gender tengligi, huquqiy asoslar, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan S.Polenina ishlarida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash jarayonini normativ-huquqiy asoslardagi o'zgarishlar nuqtai nazaridan tahlil qilgan. N.Andreyeva ayolning jamiyat va oiladagi ijtimoiy o'rni, tarixiy o'zgarishlar spektrida xotin-qizlarning faoliyatini metodologik-tarixiy asosda tadqiq etgan[5].

Rossiya olimlaridan T.Okorochkova sovet davlatining yangi iqtisodiy siyosat yillarida ayollarni mehnat sohasiga jalb etishda amalga oshirilgan chora-tadbirlarni o'rganib, uning ziddiyatli mohiyatini quyidagicha tavsiflaydi: “bir tomondan, hokimiyat ayollar ishsizligiga qarshi kurashgan

bo'lsa, boshqa tomondan esa ular xotin-qizlar mehnatidan og'ir sanoatda keng foydalanishdi va bu holat oqlab bo'lmas darajda faol targ'ib qilindi"[6].

O.Doroxina sovetlarning nikoh va oila qonunchiligidagi o'zgarishlarni tahlil qilib, umuman salbiy baholadi, uning fikriga ko'ra, nikoh va oilaga oid davlat siyosati bu institutlarni yo'q qilishga qaratilgan edi[7].

M.Arakelovning bir qator maqola va monografiyalarida ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini rivojlantirish bo'yicha xotin-qizlar bo'limlari faoliyati bilan bog'liq muammolar o'rganilib, bolsheviklar tomonidan "ayollar muammosi"ni hal qilishning ziddiyatli jihatlarini tahlil etirilgan[8].

Mashhur rus siyosatshunosi S.G.Ayvazova Sovet Ittifoqidagi xotin-qizlar ahvolidan murakkabligi va qarama-qarshi pozitsiyasini ayollarga fuqarolik maqomini beradigan ikkita asosiy - "ishchi" va "ona" kabi ijtimoiy rolning o'z ichiga olganini ko'rsatdi. S.Ayvazova ijtimoiy tizimlarni modernizatsiya qilishning mohiyati "hokimiyatning tabiatini o'zgartirish va shu bilan birga uni taqsimlashda, ya'ni hokimiyatning turli tarmoqlari o'rtasida, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida, erkaklar va ayollar o'rtasida vakolatlarini qayta taqsimlashda" deb hisoblaydi. Umuman olganda, sovet gender tartibi - rasmiy gender tengligi va yashirin ayollarga nisbatan kamsitish (diskriminatsiya)ga asoslangan "davlat paternalizmi"[9] tamoyili sifatida tavsiflanadi[10].

O'z tadqiqotlari natijasida rossiyalik sotsiologlar E.Zdravomyslova va A.Temkina sovet gender tartibini etokratik[11] deb atagan holda, davlat siyosati va mafkurasi bilan odamlar hayoti uchun qat'iy namuna o'rnatish belgilanganini tavsiflanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ayollar uchun sovet gender shartnomasi "ishlaydigan ona"ning shartnomasi edi: ayol an'anaviy oilaning nazoratidan chiqarildi, lekin unga onalik vazifalari bilan birga ishchi majburiyati yuklatildi[12].

Tatyana Shurko "Sovet Qirg'izistonida sovet davrining dastlabki yillaridagi (1918-1930 yy.) Hujum: xotin-qizlar ozodligi "sinov-tajriba" sifatida" nomli ilmiy maqolasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi nafaqat siyosiy tizimning o'zgarishiga, balki ijtimoiy tartib va ayollarning hayotiga ham ta'sir etganini, ularni uy-ro'zg'or yumushlaridan ajratgan holda, bola tarbiyasiga yangicha yondshuv asosida "onalik majburiyatining bir qismidan ozod qilish", bo'sh vaqtni esa ta'lim va mehnat uchun safarbar etish kabi munosabatlar shakllanishiga olib kelganligi tahlil etiladi. Shunga ko'ra, sovet hokimiyati shakllanishining dastlabki davri ta'lim tizimida, onalik va bolalikni muhofaza qilishda, bolalar muassasalari tashkil etilishi bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar bilan ajralib turdi. Sovetlar tomonidan "ayollarni ozod qilish" loyihasi negizida ulardan ishchilar safini to'ldirish va ishchi sifatida jamiyatdagi mavqegini qayta ko'rib chiqish ham rejalashtirganini, shuningdek, oiladagi "an'analarni" o'zgartirish orqali, defamilizatsiya amaliyoti bolalarning ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini yaratish, ta'lim muassasalarida ijtimoiy xizmatlarni joriy etish orqali rivojlanib borganligini ta'kidlaydi. Xotin-qizlarni "ozod qilish"ga yo'naltirilgan sovet modeli asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ayollarning ijtimoiy mavqeiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ular ta'lim olish, mehnat qilish, mulkka egalik qilish huquqiga ega bo'lishdi. Shuningdek, onalar va bolalar huquqlarini himoya qilish tizimlarining asoslari yaratildi. Biroq, bu kabi tadbirlar sovetlar manfaatiga xizmat qilgani holda, milliy o'ziga xoslik, oilaviy qadriyatlarni inkor qilish bilan bog'liq holda olib borildi, teng huquqlarning kafolatlari jamiyatdagi ayollarga nisbatan kamsitish bilan birlashtirildi. Sobiq ittifoq parchalanganidan so'ng, sovet davlatining "sharq ayolini ozod qilish siyosati"ning "majburiy" va "majburlovchi" xususiyatiga javoban neokonservativ tendensiyalarning kuchayishi kuzatildi, deya ta'kidlaydi muallif[13].

2004 yilda Dushanbe shahrida tadqiqotchi, tarix fanlari nomzodi G.Muhabbatova "Tojikiston Respublikasidagi madaniy o'zgarishlarga xotin-qizlarning hissasi:1924-1941 yillar" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishi olib borgan. Dissertatsiyada mavzuning dolzarbligi aholining 52 foizini ayollar tashkil etishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish, suveren Tojikistonda tinchlikni barqarorlashtirish ko'p jihatdan ularning roli o'sishiga bog'liq ekanligi bilan belgilangan. Shuningdek, ayollarning 20-yillarning boshlarida xalq ta'limi tashkil etilishi va rivojlanishidagi roli, katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatishdagi ishtiroki, maktab ta'limida ayollar faoliyati, ularning madaniy-ma'rifiy muassasa ishlariga hamda professional kasbiy faoliyatga jalb etilishi haqida tarixiy arxiv hujjatlari asosida ilmiy xulosalar berilgan[14].

Yana bir tadqiqotchi, tarix fanlari doktori M.Zikriyeyeva “Tojikistonda xotin-qizlari masalasining tarixshunosligi” mavzusida ilmiy izlanish olib borgan. Dissertatsiyada Tojikiston mustaqilligini mustahkamlash bilan bog‘liq muammolarning hal etilishi aholisining 52 foizini tashkil etgan ayollarning ijtimoiy mavqeini yuksaltirishni amalda ta‘minlash bilan bog‘liq ekanligi tahlil etilgan[15].

Xotin-qizlarga munosabat masalasida Qozog‘istonda tadqiqotchilardan D.Qosimova, A.Abdullabekova kabilar ham ilmiy izlanish olib borishgan bo‘lib, sovet hokimiyatining ayollarni “ozod qilish” siyosati ularni patriarxal munosabatlardan xalos etish niqobi ostida islom dini va shariat qonun-qoidalariga qarshi kurash bilan birga olib borilganligini ta‘kidlashadi. Sovetlar ayollarga ramziy siyosiy kapital sifatida qarab, ulardan iqtisodiy resurs, yosh avlodni kommunistik mafkura manfaatlarini asosida tarbiyalovchi o‘z siyosatining xayrixohlari sifatida foydalanishga harakat qilishganini, shuningdek, tashqi dunyoda O‘rta Osiyolik ayollar sharq ayollarini “ozod qilish” missiyasida erishilgan “yutuqlar”da ramziy timsol bo‘lishganini qayd etishgan[16].

Eka Darbaidze, Tamila Niparishvilining “Sovet ittifoqidagi ayollarning maqomi” nomli asarida keltirilganidek[17]: “Asrlar davomida ko‘plab ayollar ozodlik va siyosiy o‘zgarishlar uchun kurashning oldingi saflarida bo‘lishgan. Emansipatsiya g‘oyasini jamiyatga singdirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar bolsheviklar mafkurasining muhim va asosiy qismi edi; shuning uchun 1917-yildagi Oktyabr inqilobi ayollarga yangi orzu va yangi umidlarni olib keldi. Sovet hokimiyati ayollar uchun yangi iqtisodiy va ta‘lim imkoniyatlari eshigini muvaffaqiyatli ochgan dunyoda birinchi bo‘ldi. 1917-yilda bolsheviklarning qonunchilik tashabbuslari ularga to‘liq siyosiy va fuqarolik huquqlarini berdi, yangi qonunchilik esa ayollarni erkaklar bilan qonuniy jihatdan tenglashtirdi. 1918-yil iyul oyida qabul qilingan konstitutsiya ayollar va erkaklarning siyosiy va fuqarolik tengligini ta‘minladi (64-modda). XXasr 30-yillarining ikkinchi yarmigacha Sovet Ittifoqi ayollarga teng huquqlarni ta‘minlash bo‘yicha dunyoda yetakchi bo‘lib keldi. Biroq, Sovet Ittifoqining yangi rahbari Stalin hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng, ayollar va tenglik bo‘yicha hukumat siyosati tubdan o‘zgardi. Stalin hukmronligi davrida “yangi shakldagi ayol” tushunchasi yaratildi. Shaxsiy erkinlik va ayollar huquqlari haqidagi radikal liberal qarash bilan boshlangan dastlabki bolsheviklar siyosati ayollarga uy xo‘jaligidagi haq to‘lanmaydigan ish uchun nomutanosib mas‘uliyat yuklaydigan kunlik tubsizlikka aylandi. Muallif tomonidan kontent tahlili usuli yordamida rasmiy hujjatlar, matbuot va ilmiy adabiyotlarning mazmunini tanqidiy tahlil qilindi. Ya‘ni sovetlarning xotin-qizlarga munosabat masalasiga doir siyosatining ijobiy va salbiy natijalari ko‘rsatib berildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Xotin-qizlar masalasi zamonaviy jamiyat rivojlanishining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bolib, ayollarning oila va jamiyatdagi mavqei, qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi, bandligini ta‘minlash, onalik va bolalikni muhofazalash kabi masalalarni o‘zida ifoda etgan ijtimoiy muammolar majmui hisoblanadi. Shuning uchun ham, xotin-qizlar masalasi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Ayollar masalasining kelib chiqish tarixini tadqiq etish mazkur masalasini to‘g‘ri tushunish va hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kishilik jamiyati, ijtimoiy munosabatlar, millatlar va davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi bilan ham bog‘liq bo‘lib, xotin-qizlarga munosabat masalasi turli davrlarda ijtimoiy tuzum nuqtai nazaridan, turli sinflarning manfaatlaridan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy sohadagi muammolarini yechishga bo‘lgan intilishidan kelib chiqib hal qilingan, ammo hozirgacha o‘zining to‘liq yechimini topmagan.

Xotin-qizlar masalasini hal qilishda zamonaviy muammolar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish talab etiladi:

- xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy ahvoli;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki;
- siyosiy tizimlardagi mavqei;
- madaniy rivojlanish va diniy hayotdagi o‘rni;
- xalqaro harakatlardagi faoliyati;

- reproduktiv salomatligi hamda uni saqlash masalalari;
- oilaviy munosabatlarning shakllanishi va mustahkamlanishidagi oʻrni shular jumlasiga kiradi[18].

Maʼlumki, globallashuv sharoitida ayollarning oʻz-oʻzini identifikatsiya qilish jarayoni oʻzgarib, ularning ijtimoiy mavqei, madaniyat va taʼlim darajasi tobora oʻsib bormoqda. Bu jarayon koʻpgina tadqiqotchilarning diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb etgani holda, xotin-qizlar muammolari bilan shugʻullanish tasodifiy hol emasligida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar masalasining jahon miqyosida umumijtimoiy hodisa sifatida eʼtirof etilishi hamda ayollar muammosining izchillik bilan bartaraf etib borishga harakat qilinishi, ularning ijtimoiy hayotdagi keng ishtiroki xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirib, ularga turli xildagi keng faoliyat maydonini yaratib bermoqda. Natijada ular iqtisodiy mustaqillikka intilgani holda, oʻz isteʼdod va qobiliyatlarini toʻla namoyon etish imkoniyatiga ega boʻlmoqdalar. Bu jarayon deyarli barcha mamlakatlarning ayollar masalasi boʻyicha olib borayotgan siyosatini, ularga nisbatan munosabatini oʻzgartirishga olib keldi.

Ijtimoiy rivojlanish va siyosiy jarayonlarni mamlakat aholisining yarmidan koʻpini tashkil etuvchi xotin-qizlar ishtirokini hisobga olmagan holda baholash mumkin emas ekan, aholi ijtimoiy faolligini oshirish ayniqsa, ayollar harakatida yaqqol namoyon boʻladi. Chunki, bu ijtimoiy guruh jamiyatda boʻlayotgan eng keskin voqealarga ham oʻziga xos gender xususiyatlari orqali munosabat bildiradi va oʻzining fuqarolik tashabbuslarini reallikka aylantirish qobiliyatiga ega jins hisoblanadi. Ayollar harakati vakilalari nafaqat oʻz manfaatlarini, balki mamlakat va butun jamiyat uchun ahamiyatli boʻlgan ehtiyojmand aholi qatlamlari – bolalar va keksa-nafaqaxoʻrlar pozitsiyalarini ham himoya qiladi. Zamonaviy jamiyatda rivojlangan ayollar harakati siyosiy jarayonning ajralmas qismi boʻlib, xotin-qizlarning tashkilotlarga birlashuvi ushbu ijtimoiy guruhga muhim siyosiy qarorlarning qabul qilinishida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Millat va jamiyat kelajagi ayol faoliyatining ishtiroki bilan toʻliq ekanligining eʼtirof etilishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ilm-fan, texnika, ishlab chiqarishda, boshqaruvda ularning faol ishtirok etishiga erishilgan taqdirdagina jamiyat oʻz rivojida mukammal yoʻnalishga ega boʻlishi mumkin ekanligini jahon ahli toʻla anglab yetdi. Shuning uchun ham, bugungi globallashuv va sivilizatsiyalar toʻqnashuvi davrida, hal qilinishi muhim sanalgan, shuningdek, kelgusida ayollarning ishtirokisiz taraqqiyotga erishish mumkin boʻlmagan zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning oʻrni va rolini yanada rivojlantirish muammolari ilgari surilmoqda.

Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev qayd etganidek: “Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi”, degan hikmatli soʻzlarda albatta chuqur maʼno bor.Shu oʻrinda BMT Bosh kotibi Antonio Guterrishning joriy yil 11-17 mart kunlari boʻlib oʻtgan, mamlakatimiz delegatsiyasi ham qatnashgan BMT Xotin-qizlar ahvoli boʻyicha komissiyasining 63-sessiyasida aytgan bir fikrini keltirmoqchiman. “Qayerdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan boʻlsa, oʻsha joyda iqtisodiyot oʻsmoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda”, deb taʼkidladi A.Guterrish”[19].

Darhaqiqat, zamonaviy davlatlarning taraqqiyparvarlik darajasi xotin-qizlar haq-huquqlarining nechogʻlik taʼminlanganlik meʼyori bilan belgilanmoqda. Shuning uchun ham, gender tengligi, ayollarning ijtimoiy faolligi va ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash masalalari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oʻzbekistonda xotin-qizlarga munosabat masalasini tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini baholash va kelajakdagi strategiyalarni shakllantirish uchun muhimdir.

Endilikda, insoniyat taraqqiyotini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi koʻpgina mutaxassislar tomonidan kishilik jamiyatining barcha sohalarida ayollarning rolini oʻrganmasdan turib, insoniyat tomonidan bosib oʻtilgan tarixiy yoʻlni va taraqqiyotni toʻliq anglab boʻlmaydi, - deb hisoblanmoqda. Xususan, xotin-qizlar tarixi boʻyicha mashhur tadqiqotchi Gizela Bokning quyidagi fikri shular jumlasiga kiradi: “Oʻtmishda xotin-qizlarning tajribasi, faoliyati, hayot sohasi tarixiy qimmatga ega emasdek tuyulgani uchun ham eʼtibordan chetda qolgan. Vaholanki, xotin-qizlar

tarixi “erkaklar tarixi kabi umumiy hisoblanishi kerak[20]”, ... chunki u nafaqat insoniyatning yarmiga, balki hammasiga tegishlidir”[21].

Xotin-qizlar tarixining yana bir taniqli tadqiqotchisi Joan Kellining fikricha, “gap tarixga xotin-qizlarni qaytarish to‘g‘risida emas, balki avvalo xotin-qizlarga tarixni qaytarish haqida bormoqda. Bunday e‘tibor tarixdagi xotin-qizlargagina emas, balki xotin-qizlar tarixiga bog‘liq bo‘lsa-da, ayni paytda alohida turdagi tarix, ya‘ni butun dunyo ayollarining ayol sifatidagi tarixidir”[22].

Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlar masalasida keskin sifat o‘zgarishlarni yuzaga keltirish uchun xotin-qizlar harakatlarining tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari va holatini aniq baholash talab etiladi. Bugun dunyo miqyosida xotin-qizlar huquqlariga inson huquqlari nuqtai nazaridan baho berish butun jahon taraqqiyparvar tafakkurida kechayotgan ijobiy o‘zgarishlar samarasidir. Tabiiyki, butun dunyo miqyosida xotin-qizlar harakatlarining mavjudligi va ular faoliyatining hukumatlar tomonidan tan olinayotganligi hozirgi zamon siyosiy va davlatchilik sistemalari o‘z tuzilishini modernizatsiya qilish va demokratlashtirish yo‘lidan olib borayotganligidan hamda ayollar muammolarini baholashda liberallashtirish holati keng rivoj topayotganligidan dalolat beradi.

Ma‘lumki, XVIII – XIX asr birinchi yarmida jamiyat taraqqiyotida yuz bergan o‘zgarishlar, ya‘ni sanoatning rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi ayollarga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishiga olib kela boshladi. Xususan, arzon ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida ayollar arzon ishchi kuchi sifatida ishlab chiqarishda ishtirok eta boshladi. Bu holat ayollarning inson, erkak kishi bilan tengligi g‘oyasining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Tabiiyki, har bir mamlakatda xotin-qizlar harakati siyosiy vaziyat va tarixiy an‘analarga xos xususiyatlarga bog‘liq holda kechdi. Har bir o‘ziga xos tarixiy davrda xotin-qizlar harakatida turli maqsadlar ko‘zlangan. Jumladan, ularning o‘z haq-huquqlariga, xususan, saylov huquqi, erkaklar bilan teng ta‘lim olish imkoniyatiga erishish, yuqori lavozimlarda faoliyat yuritib, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, jamiyatda yuksak ijtimoiy mavqeni egallash, ajralish huquqi, mulkiy huquqlar, shuningdek, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlarida tenglik yolidagi sa‘y-harakatlari natijasida ayollarning tashkilotlari yuzaga kela boshladi.

Tarixdan ma‘lumki, ayollar hukmronligi davridan erkaklar hukmronligi davriga o‘tish ayollarning jamiyatda tutgan o‘rnini o‘zgartirdi, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini cheklab, faoliyatini oila doirasiga tushirib qo‘ydi. Shu davrdan boshlab jamiyat va oilani boshqarish erkaklar qo‘liga o‘tdi, ayollar esa farzandlarni dunyoga keltirish, tarbiyalash, oila bekasiga aylanib, erkaklarga moddiy va ma‘naviy jihatdan qaram bo‘lib qoldi. Lekin taraqqiyot jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda yuz bergan o‘zgarishlar kishilarning hayotga munosabati o‘zgarishiga olib keldi.

Fransuz ma‘rifatparvar faylasufi J.A.Kondorsening 1789 yilda chop etilgan “Ayollarga fuqarolik huquqini berish haqida” nomli maqolasida ayollar ahvoli va ularning huquqi masalasini ijtimoiy muammo sifatida e‘tirof etadi. Va ayollarga jamiyat a‘zosi ekanligini ta‘kidlab, ular millatning bir qismi ekanligini, ularga munosabatni tubdan o‘zgartirish lozimligini ta‘kidlaydi[23].

1791 yili Olimpiya de Guj “Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi”ni ishlab chiqdi hamda ayollarning erkin fikrlashi va o‘z fikrini erkin bayon qilishi huquqiga ega ekanligini e‘lon qildi. Olimpiya de Guj o‘z deklaratsiyasida, ozodlik va teng fuqarolik huquqlari faqat erkaklarning o‘zigagina tegishli bo‘lishi mumkin emasligini, jamiyatning yarmi – erkaklar foydalanadigan imtiyozlardan boshqa yarmi mahrum bo‘lsa, amalda tenglikka erishish mushkulligini qayd etgan, ayollarga barcha fuqarolik va shu jumladan saylov huquqlarini, shuningdek, davlat lavozimlarini egallash imkoniyatlari berilishini talab qiladi. Bu deklaratsiya ayollar harakatining birinchi manifesti hisoblanib, de Guj hamda uning tarafdorlari feministlar, ularning harakati esa feminizm[24] deb atala boshladi. Jumladan, liberal feminizm jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali ayollar bilan erkaklarning teng huquqliligiga erishish mumkin, degan fikrni yoqlab chiqadi. Bu oqim namoyandalari M.Uol’stonkraft[25], J.Mill[26] kabi ingliz feminist olimlarining ayollarni tengligi haqidagi nazariyalariga tayanadi hamda shu asosda ayollarning erkaklarga huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy qaramligiga barham berish uchun ayollar bilim olishi, uni doimiy

ravishda takomillashtirib borishi, erkinligini ta'minlash uchun imkoniyatlarga ega bo'lishi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat jarayonida teng ishtirok etishi; bozor sharoitlariga moslashuv jarayonini tezlashtirishda ayollarning nufuzini oshiradigan qonunlar qabul qilish zarurligi kabi g'oyalar o'rta tashlanadi.

XX asrning 1960-yillarida paydo bo'lgan radikal feminizm liberal feminizmning ko'plab qarashlaridan keskin farqlanadi. Uning asosiy e'tibori ayollarning o'ziga xos biologik va ijtimoiy xususiyatlariga qaratilgan. Bu oqim erkaklar bilan ayollarning mutlaq tengligini rad etib, barcha ezilgan guruhlarni ozod etishni maqsad qiladi. Radikal feministlar shunday ta'kidlashadi: ayollar eng qadimgi eziluvchi sinfni tashkil etadi, ularga nisbatan turli tazyiq va zo'ravonliklar global miqyosda keng tarqalgan ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ular jamiyatning butun tuzumini, shu jumladan farzand tarbiyalash amaliyotini tubdan isloh qilishni talab etishadi.

Amerikalik mutafakkirlar Shulamit Firestone ("Jinslar dialektikasi") va O.Brayn ("Reproduktiv siyosat") kabi olimlar o'z asarlarida tibbiyot, diniy qoidalar, an'anaviy urf-odatlar, zurriyod qoldirish, irqiy kamsitish, ekologik muammolar va siyosiy nazariyalarni tahlil qilib, erkaklar ustunligini ta'minlaydigan asoslarni ilmiy jihatdan ifodalab berishga harakat qilgan. Radikal feminizm erkaklarning patriarxal nazorati ayollarga qarshi zo'ravonlikning asosiy manbai ekanligini isbotlovchi yo'nalish sifatida tanilgan. Uning tarafdorlari ayollarning reproduktiv salomatligi bilan bog'liq masalalarni – sterilizatsiya, sun'iy abortlar, kontratseptivlar va shunga o'xshash qonuniy hujjatlarni – doimiy va qat'iy nazorat ostida ushlab turish zarurligini qat'iy ta'kidlaydilar.

Sosialistik feminizm ayollarni mustabid tuzum bosimidan ozod qilishni maqsad qilgan va ularning jamiyatdagi holatini biologik xususiyatlardan emas, balki ijtimoiy sharoitlar natijasida shakllangan hodisa sifatida ko'rib chiqqan yo'nalishdir. Bu yondashuv sobiq Sovet Ittifoqida qo'llanilishi natijasida mintaqalarda umumiy savodxonlik darajasi, o'rta va oliy ta'lim ko'rsatkichlari oshdi, shu jumladan xotin-qizlar orasida ham, tibbiy yordam va ijtimoiy xizmatlar tizimi kengaydi. Qonuniy jihatdan erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlilik (siyosiy ishtirok, bir xil mehnat va ish haqi) kafolatlandi, Sovet hokimiyati ayollarning ishlab chiqarishdagi yuqori faolligini ta'minlab, ular uchun oiladan tashqarida jamiyat hayotida teng sharoitlarda mehnat qilish muhitini yaratdi, ammo uy-ro'zg'or yumushlari asosan ayollar zimmasida qolaverdi. Rasmiy teng huquq deklaratsiyasi ostida yashirin tengsizliklar saqlanib qolaverdi, chunki ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari to'liq amalga oshmadi. Sovet siyosati ayollarning jamiyatdagi rolini o'zgartirgan bo'lsa-da, gender stereotiplari va uy-ro'zg'or ishlarining og'irligi real tenglikka to'sqinlik qildi. Hozirgi kunda bu meros ayrim olim, siyosatchi va madaniyat arboblarning yutuqlariga qaramay, ayollarning kamsitilishi muammosini saqlab qolmoqda, ammo bu holatni ko'pchilik tan olishdan qochmoqda. Biroq, Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi teng huquqlar va imkoniyatlarni ta'minlash, jamiyat va davlat boshqaruvida ularning teng darajadagi ishtirokini kafolatlash, ayollarning mavqeini ijtimoiy-huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, ularni turli tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Gender tengligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, ushbu soha bo'yicha 25 ta qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Ayollar harakati (feminizm) tarixi XVIII-XIX asrlarda Yevropa va Shimoliy Amerikada boshlanib, bugungi kungacha global miqyosda davom etib kelayotgan ayollarning tenglik uchun ko'p asrlik kurashidir. Harakatning asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi:

- birinchi to'lqin (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) maqsadi – saylov huquqi va ta'lim olish va haq to'lanadigan mehnat, shuningdek, mulk huquqi va nikoh erkinligi uchun kurashga qaratilgan;

- ikkinchi to'lqin (1960-yillar oxiri – 1980-yillar oxiri) maqsadi – siyosiy huquqlardan tashqarida ijtimoiy va madaniy tengsizlikka qarshi kurashga qaratilgan bo'lib, reproduktiv huquqlar, oiladagi zo'ravonlik va tengsiz maoshlar muhokama qilingan;

- "zamonaviy oqimlar" (1980-yillarning oxiridan boshlab), asosiy e'tibor irq, jins, sinf kabi o'zaro munosabatlarga, reproduktiv huquqlarga va zo'ravonlikka qarshi kurashga qaratilgan[27].

Ma'lumki, 1792 yili nashr etilgan Meri Uol'stonkraftning "Ayollar huquqi himoyasi" nomli kitobida ayollarning faoliksiz-passiv yashash tarzi keskin tanqid qilinib, ayollar ham siyosiy hayotda erkaklar singari teng huquqli bo'lishi lozimligi bayon qilinadi[28]. Shu tariqa Meri Uol'stonkraftning ayollar mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyasi uni zamonaviy feminizmning onasi sifatida ko'rsatdi[29].

1793 yilda Olimpiya de Guj Konvent[30] ga "Ayollar huquqi", ya'ni Kodeksni taqdim etadi. Unda ayollar ahvoli davlat miqyosida hal etiladigan masala ekanligi ko'rsatiladi. Konvent tomonidan, ayollarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, savdo-sotiq ishlarida, iqtisodiy hayotda qatnashish huquqlari qo'llab-quvvatlansa-da, biroq, ayollarning saylovlarda qatnashish huquqi tan olinmadi. Hattoki, 1848 yilgi inqilob ham ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashishini, saylov huquqini ta'minlay olmadi[31].

Xotin-qizlar tashkilotlarining shakllanish tarixi XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan feministik harakatning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu davrda xotin-qizlar o'z huquqlari, jumladan, saylov, ta'lim va mehnat huquqlari uchun faol kurasha boshladilar. Ayollar manfaatlarini himoya qilish sohasida aniq maqsad va vazifalarni belgilab olgan turli xotin-qizlar tashkilotlari bosqichma-bosqich shakllana boshladi. Ayollarning iqtisodiy – siyosiy, kasbiy huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotga ilk bor 1871 – yil 18 – martda Parij Kommunasi tashkil topgan davrda asos solingan edi.

Yevropa mamlakatlarida XIX asr o'rtalaridan boshlangan uyushgan xotin-qizlar harakatining mafkurasini shakllantirishda mashhur ingliz faylasufi, iqtisodchi va siyosiy arbob Jon Styuart Millning "Ayollarning bo'ysunishi" ("The Subjection of Women") kitobi katta rol o'ynagan, keyinchalik bu kitob "Feminizm injili" deb nom olgan. Mazkur manbada o'z ifodasini topgan ayollar huquqlari va gender tengligi masalasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan asar gender tengligining dastlabki dalili bo'lib, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy va huquqiy tengsizliklar tabiatan noto'g'ri ekanligi ta'kidlanadi. Bunday qarashlar keng tarqalgan yoki omma tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan bir paytda bu yangilik edi. Asarda ayollarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erkaklarga qaramligiga chek qo'yish, ayollar va erkaklarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari o'rtasida katta farq yo'qligi, ayollarning pastroq qobiliyatga ega ekanligi haqidagi da'volarning ilmiy asosga ega emasligi; ta'lim olish, tanlash erkinligini va xotin-qizlarning maqomini oshirishga olib kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni kafolatlovchi qonunlarni va jamoat muassasalarini joriy etish va h.z. ta'riflangan. Shuningdek, asarda ayollarning bo'ysunishi ularning shaxsiy erkinliklarini cheklab, jamiyatning umumiy taraqqiyotiga to'sqinlik qilishi, ayollarning teng huquqlarga ega bo'lishi jamiyatdagi umumiy baxt va farovonlikni oshirishi ta'kidlanadi. Jon Styuart Mill nikohdagi tengsizlikni "qullikning bir shakli" sifatida qoralab, ayollarga iqtisodiy va ijtimoiy mustaqillik berilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ayollarning ta'lim olishi va iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishi jamiyatning intellektual va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi, ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini cheklash samarasiz, deb hisoblaydi. Asar ayollar huquqlari harakati (suffragist harakat) rivojlanayotgan bir davrda yozilgan bo'lib, bu harakatga nazariy asos yaratdi. 1869 yilda e'lon qilingan bu asar darhol Yevropaning barcha asosiy tillariga, ju jumladan rus tiliga tarjima qilingan, undagi g'oyalarni muhokama qilish ko'pgina mamlakatlarda xotin-qizlarning teng huquqliligi uchun kurashuvchi tashkilotlarning tuzilishiga ko'maklashgan[32].

1879 yilda Avgust Bebelning "Ayol va sosializm" ("Die Frau und der Sozialismus") kitobi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollar huquqlari va sinfiy tenglik masalalarini muhokama qilgan muhim asarlardan biri bo'lib, unda hamma tarixiy bosqichlarda ayollarning jamiyatda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Xususan, qadimgi jamiyatlardan tortib, o'rta asrlar va sanoat davrigacha ayollarning ijtimoiy holati tahlil qilinadi va bu holatni sinfiy tuzumlar bilan bog'laydi. Shuningdek, ayol mehnatining takomili va tarqalishi, huquqiy tenglik uchun kurash masalalari batafsil yoritiladi, ayollar ozodligi sinfiy kurashning ajralmas qismi sifatida ko'rsatiladi[33]. Bebel ayollarning ta'lim olishi va mehnat bozorida teng ishtirok etishi muhimligini ta'kidlab, ayollarning intellektual va ijodiy salohiyatini cheklash jamiyatning umumiy rivojlanishiga putur yetkazishini isbotlaydi. Patriarxal oila tuzumini tanqid qilib, uni ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erga qaram qiluvchi

institut sifatida qarab, socialistik jamiyatda nikohning iqtisodiy asoslari yo‘qolishi va ayollarning erkin munosabatlarga kirishishi mumkinligini aytadi. U ayollarning ijtimoiy tengsizligini kapitalistik tizimning natijasi deb hisoblaydi, xotin-qizlarning mehnat bozorida ekspluatatsiya qilinishini, ayniqsa ishchi sinf ayollarining og‘ir mehnat sharoitlarini tanqid qiladi. Kapitalizm sharoitida ayollarning iqtisodiy mustaqillikka erisha olmasligi ularning bo‘ysunishini yanada kuchaytirgani, socialistik jamiyatda esa mulkchilik munosabatlari yo‘q qilinishi ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy ozodligiga olib kelishini ta‘kidlaydi. Sosializm umumiy mulkchilik va teng mehnat taqsimoti ayollarga teng huquqlar va imkoniyatlar beradi, deydi[34]. Lekin, sosializm sharoitida ayol-ona va ayol-ishchi o‘rtasidagi ziddiyat kuchayib borgan. Ayniqsa, bu muammo sharq ayollari xususan, o‘zbek xotin-qizlari hayoti tarixida yaqqol namoyon bo‘lgan. Biroq, sovet davri tarixiy adabiyotlarda “xotin-qizlar masalasi” hal etilgan jamiyat sifatida ta‘riflangan. Aynan, “xotin-qizlar masalasi”ning hal etilganligi eng avvalo, xotin-qizlar bilan erkaklarning yuridik tenghuquqliligining e‘lon qilinishi, ayollarning jamoat ishlab chiqarishiga keng miqyosda jalb qilinishi, ayollar uchun kasbiy, oilaviy va reproduktiv funksiyalarni ayni paytda bajarish uchun sharoit yaratilganligi, imtiyozlar, nafaqalar, bola tug‘ilishi va bolani parvarish qilish bilan bog‘liq ta‘tillar berish shaklida xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tashkil etilishi, xotin-qizlar mehnatidan foydalanishning cheklanishi kabi imtiyozlar va kafolatlar bilan izohlangan.

Ma‘lumki, sovet davridagi xotin-qizlar tashkilotlarining ildizlari Rossiya imperiyasi davriga borib taqaladi. Feministik harakat XIX asr o‘rtalarida Rossiyada ham shakllana boshladi va u liberal hamda radikal oqimlarga bo‘lingan edi. Liberal oqim ayollarning huquqiy va ta‘limiy tengligini talab qilgan bo‘lsa, radikal oqim (nigilistlar)[35] oila va jamiyatdagi patriarxal tuzumni butunlay rad etgan.

Turkiston hududi ham tarkibida bo‘lgan Rossiya imperiyasida xotin-qizlar harakati 1860-yillarda krepostnoylik huquqi bekor qilinganidan so‘ng, turmush tarzi og‘irlashgan oilalar ayollarining yashash uchun sharoit va ishga joylashish imkoniyatining yo‘qligi “xotin-qizlar masalasi” deb atalgan masalani yuzaga keltirdi[36]. Xotin-qizlar mustaqilligi g‘oyalari Rossiya jamoatchilik ongiga chuqur singib xotin-qizlar artellari, o‘zaro yordam tashkilotlari, xotin-qizlarni universitetlarga qabul qilish uchun harakatini vujudga keltirdi. Biroq vujudga kelgan tashkilotlarning hech qaysisi xotin-qizlarning siyosiy huquqlari masalasini qo‘ymagan edi, qo‘ya olmas edi ham, chunki yakkahokimlik Rossiyada aholining barcha tabaqalari huquqsiz edi, bu ma‘noda xotin-qizlar erkaklar bilan butunlay teng huquqli edilar. Boshqa tomondan, erkaklar bilan xotin-qizlarning siyosiy sohadagi bir xilda huquqsizlik holati uzoq vaqt davomida Rossiya ayollarining o‘z xususiy siyosiy manfaatlarini ilgari surishga asoslari bo‘lmaganligiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, qonun doirasida siyosiy faoliyat olib borish imkoniyati yo‘qligi xotin-qizlarni noqonuniy inqilobiy tashkilotlar safiga qo‘shilishga turtki bo‘lardi. Natijada xotin-qizlar siyosiy huquqlari uchun harakat yuzaga kelib, Rossiyada u xotin-qizlar ozodlik harakati nomini oldi. Bu harakat 1905 yildagi birinchi rus inqilobi davrida yanada kuchayib, demokratik erkinliklar uchun umumiy harakat ularga siyosiy teng huququqiylik talabini ilgari surishga imkon berdi[37].

Xotin-qizlarga saylov huquqlari berilishi uchun kurash kampaniyasiga xotin-qizlarning keksa birlashmalaridan bo‘lgan Umumrossiya xotin-qizlar o‘zaro hayriya jamiyati (1899 yilda tuzilgan) faol qo‘shildi. O‘z oldiga eng avvalo siyosiy talablarni qo‘ygan bir qator yangi xotin-qizlar tashkilotlari: Xotin-qizlarning teng huquqliligi ittifoqi (1905 yil), Xotin-qizlarning progressiv partiyasi (1905 yil), Xotin-qizlarning teng huquqliligi ligasi (1907 yil) paydo bo‘la boshladi. Ayollarning saylov huquqini qo‘lga kiritish, ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, mehnatda teng sharoitlarni ta‘minlash asosiy talablar edi. 1906-yilda Umumrossiya xotin-qizlar o‘zaro hayriya jamiyati qoshida xotin-qizlarning saylov huquqlari bo‘limi tuzildi. Ushbu bo‘lim xotin-qizlarning teng huquqliligiga erishish maqsadida Davlat Dumasiga beriladigan arznomalarni ishlab chiqish, Xotin-qizlar progressiv partiyasi va Xotin-qizlar teng huquqligi ligasi bilan hamkorlikda ayollarning saylov huquqi uchun faol tashviqot olib bordi. U xotin-qizlar saylov huquqini boshqa demokratik talablardan yuqori qo‘ygan yagona xotin-qizlar tashkiloti edi. Progressiv partiyaning dasturiy talablari erkaklar va xotin-qizlarning siyosiy erkinliklari: yalpi saylov huquqi, keng qonun chiqarish

vakolatlariga ega xalq vakillik organini yaratish, mahalliy o'zi o'zini boshqarishni kengaytirish, mehnat qonunlarini kiritish uchun birgalikda kurashishdan iborat edi[38].

1905 yilgi inqilob va 1908 yilgi Birinchi Rossiya Ayollar Kongressi ayollarning saylov huquqi va ta'lim olish huquqini oshirgan muhim voqealar bo'ldi. Chunki bu voqealar Rossiyada ijtimoiy-siyosiy faollikni kuchaytirib, ayollar harakatini rivojlantirdi va ayollarning jamiyatdagi o'rnini oshirishga xizmat qildi, garchi saylov huquqi darhol to'liq berilmagan bo'lsa-da, keyingi yillardagi o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Rossiya xotin-qizlar harakatining yangi imkoniyatlari, boshqa mamlakat xotin-qizlari harakatlarida bo'lgani kabi, Birinchi jahon urushi davrida jamiyatda ayollar mehnatiga talab keskin ortganda yuzaga keldi. Shunday sharoitda umummamlakat tashkilotini barpo etish tendensiyasi sababli Xotin-qizlar o'zaro hayriya jamiyati va Xotin-qizlarning progressiv partiyasi tashabbusi bilan xotin-qizlar siyosiy huquqlari talablarini ilgari surgan Butun Rossiya xotin-qizlar jamiyati (keyinchalik, Xotin-qizlar milliy ittifoqi) tashkil etildi. 1916 yilda Xotin-qizlar o'zaro hayriya jamiyati va Xotin-qizlarning progressiv partiyasi tashabbusi bilan xotin-qizlar siyosiy huquqlari talablarini ilgari surgan Butun Rossiya ayollari Yevropada birinchilardan bo'lib erkaklar bilan teng saylov huquqlari uchun jadal kurash olib bordi[39]. Faqatgina 1917-yil Fevral inqilobi natijasida Rossiyada ayollar uchun ovoz berish va saylanish huquqlari e'lon qilindi va Oktyabr inqilobidan so'ng bu huquqlar bolsheviklar tomonidan qanoatlantirildi. 1917-yilgi Oktyabr inqilobidan keyin bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng, ayollar ozodligini sinfiy kurashning bir qismi deb e'lon qildilar. Ayollarga to'liq saylov huquqi, asosan, 1918-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilingach berilgan, bu esa dunyodagi ko'plab davlatlardan avvalroq edi; ayollar teng huquqli fuqarolar sifatida ovoz berish va saylanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1918-yilgi sovet Konstitutsiyasining 22-moddasida Sovet Respublikasining barcha fuqarolari jinsi, irqi yoki millatidan qat'iy nazar, teng huquqlar e'lon qilindi va 64-moddada ayollarning erkaklar bilan teng sharoitlarda saylash va saylanish huquqi belgilandi. 1924 yil SSSR Konstitutsiyasi va 1936 yil "Stalin Konstitutsiyasi" ayollar uchun kafolatlangan – "SSSRdagi ayollar iqtisodiy, davlat, madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi barcha sohalarida erkaklar bilan teng huquqlar taqdim etildi"[40] (122, 135, 137-moddalar), 1937-yil 14-fevraldagi O'zbekiston SSR konstitutsiyasi (134-modda) ayollarning mehnat, ta'lim va siyosiy huquqlarini kafolatladi[41]. Ya'ni ayollarning teng huquqliligi va iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan teng mavqega ega ekanligi belgilab qo'yildi. Ammo bu huquqlar kommunistik jamiyat qurilishiga xizmat qilishi kerak edi. Sovet hokimiyati ayollarni "ozod qilish" va ularga teng huquqlar berishdan manfaatdor edi, chunki socialistik jamiyat qurishni mehnatkash ayollarning muhim qismi ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmadi. Manbalarda qayd etilganidek, ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishda, ularni "maishiy qullik" deb atalgan uy-ro'zg'or yumushlari, oshxona va farzand tarbiyasidan "ozod qilish" asosiy maqsad etib belgilandi[42]. Sovetlar dohiysi Lenin ayollarni ilgari foydalanilmagan mehnat kuchi sifatida ko'rди[43].

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda keng qatnashishi XX asrning 20-30-yillaridagi umumiy ahvol va sosial-demokratik qarashlar ta'siri bilan bog'liq holda kechgan. Aynan, shu davrda tashkil etilgan xotin-qizlar tashkilotlarining eng asosiy vazifasi ham ayollar o'rtasida yangi "sosialistik" turmush tarzini targ'ib qilish va yangicha fikrlash uchun tarbiyaviy ish olib borishda kommunistik partiyaga ko'maklashishi lozim edi. Sovet hokimiyati "ayollarning butunlay yangi avlodini, ularni faqat oilani o'ylaydigan shaxslar emas, balki ko'proq jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotida erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalashni asosiy vazifa qilib qo'ydi"[44]. Partiya qo'mitalari qoshida faoliyat olib borgan xotin-qizlar bo'limlari ham ayollarning "huquqiy savodxonligini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, iqtisodiy mustaqilligini oshirish, madaniy saviyasini yuksaltirish orqali "o'z sinfi ideallari uchun faol kurashchilarni tarbiyalash"ni asosiy vazifasi etib belgilagan[45]. Ma'lumki, sovet davriga qadar mahalliy musulmon ayollarning ijtimoiy ahvoli va ularning turmush tarzi jinslarni ajratishdan va ayollarni ijtimoiy hayotdan yakkalab qo'yishdan iborat shariat yo'l-yo'riqlariga asoslangan edi. Shuning uchun ham, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Turkiston o'lkasida asriy an'analar tufayli "ichkarida" bo'lgan

mahalliy xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishda qiyinchiliklar va ziddiyatlar yuzaga kelgan. Bu borada sovetlar tomonidan mintaqani mafkuraviy va madaniy jihatdan o'zgartirishga qaratilgan "yangi hayot barpo etish" va "patriarxal teokratik jamiyat negizlariga qarshi kurash" shiori ostida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Shu maqsad yo'lida xotin-qizlar bo'limlarida musulmon sho'balari tuzilib, ularning vazifasi tub millat vakili bo'lgan ayollar orasidan amaliyotchi jamoatchi xodimlarni (instruktorlarni) tayyorlashdan iborat edi. Chunki boshqa millat jamoatchi xodimlariga qaraganda ularga ishonch ko'proq edi. Ularning rahbarlari mahalliy partiya qo'mitalari tomonidan tayinlangan. Agar rus sho'balari targ'ibot-tashviqot va madaniy-ma'rifiy bo'limlardan iborat bo'lsa, musulmon sho'balari esa iqtisodiy va siyosiy-ma'rifiy bo'limlardan iborat bo'lgan[46]. Musulmon sho'balarida Xusanbayeva, Yusupova, Badriddinova kabi eng tajribali va bilimli ayollar faoliyat olib borishgan[47]. Biroq, amaliyotchi-jamoatchilarga ehtiyoj yuqori ekanligidan kelib chiqib, Turk sovet maktabida instruktorlarni tayyorlash maqsadida maxsus o'quv bo'limi kurs sifatida ochilgan edi[48]. Turkistonda "ayollar tengligi" uchun kurashning dastlabki bosqichida targ'ibot va tashviqot ishlarining alohida ahamiyatini hisobga olgan holda, o'lka xotin-qizlar bo'limi targ'ibot va tashviqot bo'limlari to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqdi. Nizomga muvofiq, o'lka xotin-qizlar bo'limi mahalliy ayollarni "zamonaviy, yangi sovet ayoli" sifatida tarbiylashga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalda yig'ilishlar, namoyishlar, anjumanlar, turli siyosiy kampaniyalar, suhbatlar shaklida olib borishgan.

Turkiston bolsheviklar nazoratiga o'tgandan so'ng ayollar ovoz berish va saylanish huquqlari bilan ta'minlangan edi. Biroq, bu haqda kamchilik ayollar bilishgan, 1920 yil oxirlariga qadar ularni amalda qo'llashmagan. Aynan, kommunistik mafkura manfaati yo'lida tashkil etilgan Xotin-qizlar bo'limi etakchi faol o'zbek ayollaridan millionlab mehnatkash xotin-qizlarni partiya faoliyatiga, saylovlar va mahalliy hukumat faoliyatida ishtirok etishga jalb qilish, ular ongiga kommunizm g'oyalarini singdirish va uni keng targ'ib qilinishida targ'ibotchi sifatida keng foydalanilgan. Qonun va amaliyotda, oilada, davlatda, jamiyatda erkak bilan to'liq tenghuquqlilikni ta'minlash barobarida ayol ishchi va dehqonlardan iborat siyosiy tashkilot tuzishga qaror qilingan. Chunki sovetlar tomonidan "inqilobning muvaffaqiyati ayollarning unda qanchalik ishtirok etishiga bog'liq" deb qaralgan[49]. Shuning uchun ham, sovet davrida ishchi va dehqon ayollarga ulkan mehnatkash zaxira sifatida qaralib, mashaqqatli mehnatga tayyor turadigan "yangi shakldagi ayol"ni yaratishga kirishildi. Ushbu maqsadga erishish uchun sovet hukumati traktorchi, snayper yoki payvandchi bo'lgan xotin-qiz ishchilarni va ularning sovet jamiyati rivojiga qo'shgan hissasini faol ravishda targ'ib qildi. Bolsheviklar[50] ning fikriga ko'ra, ayollar ishchi kuchining bir qismi bo'lishi kerak edi, shuning uchun ularning oiladagi roli ham yangi sovet qarashlari bilan belgilanadi. Va bu qarashda ayollar mustaqillikka erishishlari va o'tmishda o'ynagan an'anaviy rollaridan "ozod" bo'lishlari kerak edi.

O'zbekistonda oilaviy-maishiy munosabatlarda shariat qonun-qoidalariga asoslangan an'anaviy turmush tarzi tufayli sovetlarning xotin-qizlarni "ozod" qilish siyosati murakkab ijtimoiy ziddiyatlar asosida kechdi. Mahalliy ayollar musulmon an'alariga muvofiq, paranji va chachvonda yurishar edi, savodsizlik va oilaviy qullik keng tarqalgan edi. Sovet hokimiyati ayollar ozodligini "sharq ayollarini ozod qilish" shiori ostida amalga oshirdi. Bu jarayonda asosiy vazifa xotin-qizlar bo'limining zimmasiga tushdi.

Umuman olganda, XX asr boshlariga kelib, xotin-qizlarga munosabat masalasida ya'ni, fuqarolik huquqi, kasbiy faoliyat, oiladagi ahvoli jihatidan sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Xususan, xotin-qizlar uchun universitetlarga hamda ularning mehnat qilish huquqlari tan olinib, turli kasblarni o'rganishlariga yo'l ochildi, mulkiy-huquqiy maqomlari yaxshilandi, oila-nikoh qonunlari erkinlashdi, bir qator mamlakatlarda, masalan Buyuk Britaniya va Skandinaviya mamlakatlarida, xotin-qizlar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida qatnashish huquqini olishdi, xotin-qizlarga parlament ovozi huquqi berilishi misollari paydo bo'ldi. Bu jarayonda Buyuk Britaniyada ayollarning saylov huquqi uchun harakat ishtirokchilari sufrajetlar[51] muhim rol o'ynagan.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari ham xotin-qizlarning siyosiy huquqlari tan olinishida muhim omil bo'ldi, mana shu urush davomida ayollar ijtimoiy turmushning ko'pgina sohalarida

erkaklarning o‘rnini bosa olishlarini isbotladilar[52]. 1934-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan ayollarning Jahon Kongressida urushga hamda fashizmga qarshi Butunjahon Xotin-Qizlar qo‘mitasi tuzildi. II jahon urushi davrida xotin-qizlar front orti va front ichkarisida fashizmga qarshi faollik bilan kursh olib bordi. 1945-yil dekabrda Parijda tashkil etilgan Xalqaro xotin-qizlar kongressida Xalqaro Xotin-qizlar demokratik federatsiyasi butun dunyodagi xotin-qizlarning ahvolini yaxshilashga hamda huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab tadbirlarning tashabbuskori bo‘ldi[53]. Mazkur tashkilot bir necha bor ayollar muammosiga bag‘ishlangan xalqaro kongresslarni, jumladan, 1945 – yil 25-noyabrda Parijda, 1948 – yil dekabrda Budapeshtda, 1953 – yil iyunda Kopengagenda, 1958 – yil iyun oyida Vena shahrida o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldi[54]. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, 1969-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Osiyo mamlakatlari xotin-qizlari konferensiyasida Osiyo va Afrika qit‘asidagi keskin ayollar muammolari jumladan, xotin-qizlarning og‘ir ijtimoiy- iqtisodiy va o‘ta tahqirli ahvoli, savodsizlik, og‘ir mehnat sharoitlari, ochlik va qashshoqlik masalalari muhokama qilingan. 1986-yil sentyabrda esa Toshkentda “Ayol va taraqqiyot, uning tinchlikni saqlashdagi hissasi” mavzuida Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari xotin-qizlar tashkilotlarining mintaqaviy seminari ham o‘tkazilgan[55].

Xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga doir institutsional mexanizmlar va ularni yaratish zaruriyati jahon hamjamiyati tomonidan 70-yillarning o‘rtalarida anglashila boshlandi. Aynan, XX asrning 70-80 yillarida BMT tomonidan tashkil etilgan xotin-qizlar ahvoli bo‘yicha umumjahon konferensiyalari[56] jarayonida xotin-qizlar teng huquqliligini ta‘minlash maqsadida hukumatlarga institutsional mexanizmlar masalasida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilib, tavsiyalar berildi. BMTning xotin-qizlar maqomini oshirishga doir siyosati gender muammosi bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirishga ijobiy ta‘sir o‘tkazdi. BMT homiyligida o‘tkazilgan bir turkum jahon xotin-qizlar konferensiyalari natijasida turli tarixiy davrlarda va turli ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda xotin-qizlarga oid tadqiqotlarning uslubiy bazasi kengaytirildi. Tadqiq etilayotgan fanni nazariy jihatdan qaytadan anglash va konseptual apparatni qayta ko‘rib chiqish natijasida ayollar tarixi yangi sifat kasb etadi. Shu munosabat bilan “ayollarning yangi tarixi” haqida gapirish mumkin bo‘ldi[57].

1970-yillarda va undan keyingi davrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ayollar maqomini yuksaltirishga qaratilgan siyosati gender masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning kengayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu jarayonda YUNESKOning 1975-yilni Xalqaro ayollar yili deb e‘lon qilishi, shuningdek, BMT doirasida o‘tkazilgan Ayollar o‘n yilligi (1975–1985) bilan bog‘liq tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi. BMT homiyligida tashkillashtirilgan bir qator jahon ayollar konferensiyalari turli tarixiy davrlar va ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda ayollarning holati va mavqeini o‘rganishga oid uzoq muddatli, muvofiqlashtirilgan xalqaro loyihalarning shakllanishiga hissa qo‘shdi[58].

1995 yil 4-15 sentyabr kunlari Pekinda bo‘lib o‘tgan Ayollar holati bo‘yicha IV Butunjahon konferensiyasida ayollarning huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi ekanligi, ushbu huquqlarni himoya qilishda “madaniy relyativizm”ni[59] qabul qilish maqbul emasligi, ayollarning barcha huquqlari tagzaminli va universal ekanligi yana bir bor tan olindi[60]. Mazkur anjumanda uydagi zo‘ravonlik ko‘pgina mamlakatlar uchun xos bo‘lgan “yuqumli kasallikdir” deb e‘lon qildi[61]. Konvensiyaga muvofiq uning qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish maqsadida Ayollarning kamsitishni bartaraf etish qo‘mitasi ham ta‘sis etildi. Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar Platformasi qabul qilindi. Mazkur tarixiy hujjatlar ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha strategiyalar, siyosat va choralar tadqiq etilgan eng to‘liq dastur hisoblanib, hukumatlarga “gender jihatlar” barcha davlat strategiyalari va dasturlarida “o‘z ifodasini topishi” tavsiya etildi. Xususan, xotin-qizlarga munosabat masalasida hukumatlar va jamiyatlar tomonidan quyidagi eng muhim 12 ta maxsus me‘yorlar qabul qilinishi kerakligi ta‘kidlandi. Xususan, “Ayollar va qashshoqlik”, “Ta‘lim va ayollarning kasbiy tayyorgarligi”, “Ayollar va sog‘liqni saqlash”, “Ayollarga nisbatan zo‘ravonliklar”, “Qurolli mojarolar davrida ayollar”, “Ayollar va iqtisod”, “Ayollarning boshqaruv organlarida va qaror qabul qilishdagi ishtiroki”, “Ayollar holatini yaxshilashda institutsional mexanizm”, “Ayollar va inson huquqlari”, “Ayollar va ommaviy axborot vositalari”, “Ayollar va atrof – muhit”, “Qizlar”

shular jumlasidandir. 189 davlatning 17000 delegati ishtirok etgan Pekin konferensiyasida “Pekin Harakat platformasi” qabul qilindi[62].

Ommaviy axborot vositalarida Mexiko anjumani “*dunyo miqyosida xotin-qizlar o‘rtasida dialogning boshlanishi*”[63], Kopengagen konferensiyasi “*ayollar ahvoli asosida chuqur analizning boshi va o‘z faoliyatini baholash davri*”[64], Nayrobi anjumani[65] “*dunyo miqyosidagi yangi mazmundagi jahon feminizmining qayta tug‘ilishi*”, deb nomlandi. Pekin konferensiyasi[66] esa, “*jahon feministik harakatining katta g‘alabasi va uning faoliyatidagi ayollar manfaatlariga sodiqlik va izchillik*” sifatida baholandi[67].

1993-yilda BMT Bosh Assambleyasi “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish to‘g‘risida”gi deklaratsiyani qabul qildi[68]. Bu inson huquqlari bo‘yicha xalqaro-huquqiy normalarga qattiq munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘ymasligi haqidagi qoidani kirituvchi birinchi universal huquqiy hujjatdir[69]. Deklaratsiya “Barcha insonlarning tengligi, xavfsizligi, erkinligi, daxlsizligi va qadr-qimmatiga taalluqli huquq va tamoyillarni ayollarga nisbatan umumbashariy tatbiq etishga shoshilinch ehtiyoj bor” degan bayonot bilan boshlanadi. Deklaratsiya natijasida davom etayotgan jarayonda 1999-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 25-noyabr Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni sifatida belgilandi[70]. Shunday qilib, xotin-qizlar harakatining 2-bosqichidagi muhim natijalar – BMT ning xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi va BMTning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi huzurida xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha Maxsus ma‘ruzachi lavozimining joriy qilinishidan iborat bo‘ldi[71].

Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 2000 - yil 5-9-iyun kunlari Nyu-Yorkda “Ayol 2000: XXI asrda gender tenglik, rivojlanish va jahon” deb nomlangan maxsus sessiyasi hukumat va fuqarolik jamiyatiga foydali tajribalar bilan o‘rtoqlashish, joriy muammolarni ko‘rib chiqish, erkaklar va ayollar tengligiga erishish borasidagi siyosiy yo‘nalishlarni ishlab chiqish imkonini berdi[72].

O‘zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlari tarixini o‘rganish ijtimoiy va gender tengligi masalalarini chuqur tushunishda muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan feministik, ijtimoiy tahlil va mustamlakachilik natijasida yuzaga kelgan madaniy va ma‘naviy hukmronlikni tahlil qiluvchi postkolonial yondashuvlar, metodologik jihatdan esa tarixiy tahlil, sifatli va miqdoriy usullar tadqiqotning samaradorligini oshiradi. Ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat o‘tmishni tushunish, balki kelajakdagi ijtimoiy islohotlar uchun muhim yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

